

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI (SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA)

*Munira Shermirzayeva Boymirza qizi,  
Namangan davlat pedagogika instituti  
1-kurs tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Ona tili darslarida zamonaviy innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning mustaqil fikrlash, matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, nutqiy kompetensiya, og'zaki nutq, yozma nutq, boshlang'ich ta'lim, ona tili, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ (НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА)

**Аннотация:** В данной статье освещены методические основы использования технологий искусственного интеллекта в развитии устной и письменной речи учащихся начальных классов. Проанализированы вопросы формирования речевых компетенций учащихся, развития навыков самостоятельного мышления, понимания и анализа текста на основе применения современных инновационных подходов на уроках родного языка.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, речевая компетенция, устная речь, письменная речь, начальное образование, родной язык, интерактивные методы, цифровые технологии

## INNOVATIVE METHODS OF DEVELOPING ORAL AND WRITTEN SPEECH IN PRIMARY EDUCATION (BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE)

**Annotation:** This article discusses the methodological foundations for using artificial intelligence technologies in developing oral and written speech skills of primary school students. It analyzes the formation of students' communicative competence, as well as the development of independent thinking, text comprehension, and analytical skills through the application of modern innovative approaches in mother tongue lessons.

**Keywords:** artificial intelligence, communicative competence, oral speech, written speech, primary education, mother tongue, interactive methods, digital technologies

### KIRISH

Jahon miqyosida ta'limni tizimli ravishda rivojlantirish g'oyasi e' tirof etilib, 2030-yilgacha qabul qilingan barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasida

sifatli ta'lim olish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Mazkur vazifadan kelib chiqib, o'quvchilarining savodxonligini oshirish, ularning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida o'quvchilarni innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish, ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish hamda nutqiy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma nutqini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtboshimiz 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga qilgan murojaatnomalarida ham ta'lim tizimi haqida fikr bildirib, ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li ekanligiga alohida to'xtalib o'tdilar. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv o'quvchilarning ona tili fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash, nutqiy faoliyatini tizimli rivojlantirish hamda ularni zamonaviy axborot muhitida samarali muloqot qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, nutqiy kompetensiyani shakllantirish, matn bilan ishlash

hamda savodxonlikni oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, jumladan, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarning o'rni alohida ta'kidlanadi. Xorijiy tajribalarda, ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning individual o'rganish ehtiyojlarini hisobga olish, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish, imlo savodxonligini oshirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, M.Mirmaxsudova, U.Masharipova, K.Mavlonova, N.Sattorova, Sh.Sariyev, Sh.Yusupova, T.Yusupova, N. Qosimova, M. Hamdamova hamda G'.Hamrayevlarning ilmiy izlanishlarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda metodik asoslari yoritilgan.

Shuningdek, o'quvchi va talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, nutqiy malakalarini takomillashtirish muammolari ona tili va o'zbek tili fanlari misolida N.Dadajonova, R.Yo'ldoshev, M.Karaxodjayeva, G.Muhamedjanova, A.Nisanbayeva, M.Rixsiyeva, Z.Salisheva, N. Umarova hamda Sh.Yuldasheva kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Mazkur ilmiy ishlarda nutqni rivojlantirishning turli metod va yondashuvlari, jumladan, interfaol ta'lim usullari, matn bilan ishlash texnologiyalari hamda kommunikativ yondashuvning samaradorligi asoslab berilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi yetarli darajada o'rganilmaganligi kuzatiladi. Shu jihatdan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt imkoniyatlarini ona tili ta'limiga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlar muhim didaktik vosita hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu metodlar sun'iy intellekt texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini yanada samarali rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Jumladan, "Qayta hikoya" metodi. Ushbu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodda o'quvchilar eshitgan ma'lumot asosida matn tuzadilar va uni qayta og'zaki hikoya qiladilar. Bu jarayonda tinglab tushunish, yozma nutq va og'zaki ifodalash ko'nikmalari birgalikda rivojlanadi. Sun'iy intellekt asosidagi audio-matn generatorlari va tahlil dasturlari ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etishda yordam beradi.

"Xatoni toping!" metodi ham o'quvchilarda diqqat, tahlil va imloviy savodxonlikni rivojlantiradi. O'qituvchi tomonidan ataylab xato kiritilgan matnlar o'quvchilar tomonidan aniqlanadi va tuzatiladi. Sun'iy intellekt yordamida avtomatik xato aniqlash tizimlari bu metodni raqamli formatda yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi.

"2+" metodi o'quvchilarning muloqot va lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, savol-javob shaklida og'zaki nutqni shakllantiradi. Ikkinchi guruh o'quvchilari esa berilgan so'zlarning tarjimalarini yozma shaklda bajaradilar. Bu jarayonda sun'iy intellektga asoslangan tarjima va lug'at dasturlari o'quvchilarga qo'shimcha yordam beradi.

"Nomuvofiq" mashqlar esa o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va til birliklarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu mashqda qarama-qarshi ma'noli yoki mantiqan mos kelmaydigan so'z birikmalari beriladi (masalan: issiq muz, sovuq quyosh, qorong'i kun). O'quvchilar ushbu nomuvofiqlikni aniqlash orqali til tizimi haqidagi tasavvurlarini mustahkamlaydilar. Sun'iy intellekt asosidagi til tahlil tizimlari bunday mashqlarni avtomatik yaratish va tekshirish imkonini beradi.

"Noto'g'ri jumla" metodi rasm asosida hikoya tuzish jarayonida qo'llaniladi. O'qituvchi rasmni tasvirlab berish davomida mazmunga aloqador bo'lmagan jumalarni ham kiritadi. O'quvchilar esa diqqat bilan tinglab, ushbu noto'g'ri

jumlalarni aniqlaydilar. Bu metod o'quvchilarda ziyraklik, kuzatuvchanlik va diqqatni rivojlantiradi. Sun'iy intellekt asosidagi vizual-tahlil dasturlari ushbu jarayonni raqamli shaklda tashkil etishga yordam beradi.

Bunday topshiriqlar o'quvchilarning matnni tahlil qilish, asosiy va ikkinchi darajali axborotni farqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Aylana qalam" metodi bog'lanishli nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodda o'quvchilarga berilgan so'zlar asosida ketma-ket hikoya tuzish topshiriladi. Har bir o'quvchi oldingi fikrni davom ettirgan holda yangi jumla qo'shadi. Natijada yaxlit matn hosil bo'ladi. Sun'iy intellektga asoslangan matn generatorlari va nutqni tahlil qiluvchi tizimlar bu jarayonda o'quvchilarga yo'naltiruvchi yordam ko'rsatishi mumkin.

Mazkur mashqlar tizimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy faollik, ijodkorlik va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarning bilim olish jarayonini yo'naltirish, ularni mustaqil fikrlashga undash hamda o'quv faoliyatini samarali tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Umuman olganda, nutqiy vaziyatlarda bunday interfaol mashqlarni qo'llash va ularni sun'iy intellekt imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim metodik ahamiyatga ega.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bundan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan tizimli foydalanish sezilarli ijobiy natijalarni ko'rsatadi. Xususan, "Qayta hikoya" metodini qo'llash natijasida o'quvchilarda tinglab tushunish, matnni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish hamda fikrni aniq ifodalash ko'nikmalari shakllanadi.

"Xatoni toping!" metodi orqali o'quvchilarning imloviy savodxonligi oshib, ular matndagi xatolarni tez va aniq aniqlashga o'rgandilar. Bu esa ularning yozma nutqida xatolar sonining kamayishiga olib keldi. Shu bilan birga, "2+" metodi asosida olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirib, muloqot jarayonida faol ishtirok etishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. "Nomuvofiq" mashqlar orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va so'zlar o'rtasidagi semantik munosabatlarni

anglash qobiliyati rivojlandi. O'quvchilar qarama-qarshi yoki mantiqan mos kelmaydigan birikmalarni aniqlashda faol ishtirok etdilar. "Noto'g'ri jumla" metodi esa ularning diqqatini jamlash, eshitilgan ma'lumotni tahlil qilish va ortiqcha axborotni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirdi. "Aylana qalam" metodidan foydalanish natijasida o'quvchilarda bog'lanishli nutqni tuzish, jamoada ishlash va bir-birining fikrini davom ettirish ko'nikmalari rivojlandi. Ushbu metod o'quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirib, ularni mustaqil ravishda matn yaratishga undadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ushbu metodlar bilan uyg'unlashtirish esa ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Xususan, avtomatik tahlil, xato aniqlash, matn va audio generatorlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlash imkonini yaratdi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Yuqorida tavsiya qilingan metodlar o'quvchilarning tinglab tushunish, fikrni izchil bayon etish, yozma savodxonlik va muloqot madaniyatini shakllantirishda kompleks ta'sir ko'rsatadi. Har bir metod o'ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni uyg'un holda qo'llash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Shuningdek, interfaol metodlarni sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiya qilish ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Sun'iy intellekt asosidagi vositalar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, tezkor tahlil va baholash, shuningdek, o'quv materiallarini moslashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'limning shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlaydi va har bir o'quvchining nutqiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanish o'qituvchining ishini yengillashtiradi, ammo uni to'liq almashtira olmaydi. O'qituvchi ta'lim jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi asosiy shaxs bo'lib qoladi. Texnologiyalar esa yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq, ushbu yondashuvni samarali amalga oshirish uchun bir qator shart-sharoitlar zarur. Jumladan, o'qituvchilarning metodik va raqamli kompetensiyasini oshirish, ta'lim

muassasalarini zamonaviy texnologik vositalar bilan ta'minlash hamda sun'iy intellektdan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, interfaol metodlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining uyg'unligi boshlang'ich ta'lim tizimida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali modeli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvni keng joriy etish orqali o'quvchilarning bilim darajasi, nutq madaniyati va ijodiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-y, 20-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
2. Mavlonova K. Matn tuzishni o'rgatishda "Ona tili" darsliklari beradigan imkoniyatlar tahlili // O'zMU XABARLARI 2023. №1/2.
3. Sabirjonov R.A., Ayupov R.H. va boshqalar. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari. "Media" nashriyoti, 2022 yil.
4. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T., 2010.
5. Teshaboyeva G.A. Ona tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "NIF MSH", 2024.
6. Qosimova K, Matchonov S va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009.